

**MA'RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA AHOLINING SOG'LOM
TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSI ON MODELLARINI
YARATISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI**

Achilova Nilufar Norbutayevna

*Samarqand davlat pedagogika institute "Milliy g'oya va falsafa" kafedrasining o'qituvchisi Tel. (94)
251 76 62*

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishda aholining sog'lom turmush tarzini rivojlantirish borasida "Aqlli tibbiyot", "Raqamli tibbiyot", "Aqlli va raqamli innovatsion tibbiyot" kabi innovatsion modellarini yaratishning ilmiy - amaliy masalalari haqida qiziqarli fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, sog'lom turmush tarzi, tibbiyot, madaniyat, aholi, innovatsiya, inson, salomatlik, sog'lom turmush tarzi.

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ
МОДЕЛЕЙ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ В
УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА**

Ачилова Нилуфар Норбутаевна

*Самаркандский государственный педагогический институт, Преподаватель
кафедры «Национальная идея и философия» Телефон. (94) 251 76 62*

Аннотация: В данной научной статье излагаются интересные идеи по научным и практическим вопросам создания инновационных моделей, таких как «Умная медицина», «Цифровая медицина», «Умная и цифровая инновационная медицина» в целях развития здорового образа жизни населения в условиях формирования просвещенного общества Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, здоровый образ жизни, медицина, культура, население, инновации, человек, здоровье, медицинская культура.

**SCIENTIFIC AND PRACTICAL ISSUES OF CREATING INNOVATIVE
MODELS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE OF THE POPULATION IN THE
CONDITIONS OF FORMING AN ENLIGHTENED SOCIETY**

Achilova Nilufar Norbutaevna

*Samarqand State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of "National Idea and Philosophy"
Phone. (94) 251 76 62*

Abstract: *This scientific article presents interesting ideas on scientific and practical issues of creating innovative models, such as "Smart Medicine", "Digital Medicine", "Smart and Digital Innovative Medicine" in order to develop a healthy lifestyle of the population in the context of forming an enlightened society of the New Uzbekistan.*

Keywords: *New Uzbekistan, healthy lifestyle, medicine, culture, population, innovation, man, health, medical culture.*



Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu mamlakat aholisidir. Aholining, "...elyurt salomatligi – jamiyatning bebaho boyligidir. Tinchlik va sog'liq bo'lgan joyda albatta o'sish va o'zgarish, baxtli va farovon hayot bo'ladi"[1]. Zero shunday ekan bu masalaning yechimi aholining sog'lom turmush kechirish savodxonligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladigan sog'lo turmush tarziiga bog'liqdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish o'z vaqtida innovatsion yondashuvni talab qiladi. Bu hayot talabi, falsafa tili bilan aytganda hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Bu xususda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion – g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak»[2.], – degan edi. Bunday kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun 2020 yil 7 aprelda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" qonun qabul qilindi. Qonunda: "Innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy,iqtisodiy samaraga erishishni taminlaydigan yangi ishlanma"[3.],– degan ta'rif berilgan. Demak, tibbiyot sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun yaratilib va amalda qo'llanilayotgan har bir yangi ishlanma - bu innovatsiyadir. Bu g'oyani amalga oshirishni eng avvalo aholining sifatli oziqovqatlarga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi eng muhim soha bo'lgan qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 23 oktyabrda PF-585sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Qabul qilingan strategiyaga ko'ra qishloq aholisining sog'lom turmush kechirish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion usul va vosi talarni qo'llashning asosiy jihatlarini:

- 1) iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, ya'ni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklashda inson salomatligiga qanday ta'sir etish imkoniyatlarini hisob ga olish;
- 2) tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ya'ni chi qindilarni atrof muhit va aholi sog'ligi uchun xavfliligiga darajasini hisobga olgan holda qayta ishlashni tashkillashtirish;
- 3) tabiatdan oqilona foydalanish sohasida nazoratni kuchaytirish, bunda sog'liqni saqlash idoralari mutassadilarining vakolatlarini kengaytirish;

4) vitaminlarga boy bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini natural holda saqlash, qayta ishlash texnologiyalarining yangi avlodini yaratish orqali, ularning inson organizmi uchun foydalilik darajalarini ko'paytirish;

5) qishloq xo'jaligida agrar ta'limni kuchaytirish orqali tabiiy resurslar, pestitsidlar va kimyoviy vositalardan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish tufayli tibbiy-biologik xavfsizlikni ta'minlash masalasini yechishga katta e'tibor qaratish kerak.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida mamlakat aholisining sog'lom turmush tarziini shakllantirish va rivojlantirishning innovatsion modellarini yaratish, ya'ni modellashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Modellashtirish - bu aslini olganda bilim obyektlarini ularning modellari bo'yicha o'rganish; ushbu hodisalar haqida tushuntirishlar olish, shuningdek tadqiqotchini qiziqtiradigan hodisalarni bashorat qilish uchun hayotiy obyektlar, jarayonlar yoki hodisalarning modellarini qurish va o'rganishdir.

Hozirgi vaqtda modellashtirish texnologiyasiga va qo'llanilish sohasiga ko'ra quyidagi asosiy modellashtirish turlari ajratib ko'rsatish mumkin:

- Axborotni Modella
- Kompyuter modellashtirish
- Matematik modellashtir
- Biologik modellashtirish
- Tibbiy modellashtirish
- Simulyatsiya modellashtirish
- Evolyutsion modellashtirish
- Ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni matematik modellashtirish va boshqalar.

Sog'lom turmush tarzini modellashtirish, modellashtirish turlari ichida eng murakab kabi hisoblanadi. Chunki, bunda insonning jismoniy tanasida bo'lgan barcha xasta liklarni tashxislash, davolash, rehabilitatsiya qilish, ma'naviy vujudidagi ruhiy buzi lish jarayonlarni, shuningdek tibbiyotda boshqaruv ishlarini tashkillashtirishni mo dellashtirish, ularning kompyuterda ishlash dasturlarini yaratish masalalari o'ziga xos bo'lgan qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi.

Aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini tashkil lashtirishning innovatsion modellaridan birini «Aqlli-raqamli tibbiyot» modeli tashkil qiladi.

Xo'sh, «Aqlliraqamli tibbiyot» nima? Bu savolga falsafiy jihatdan quyidagicha ta' rif berish mumkin. «Aqlli va raqamli innovsion tibbiyot» — bu bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillariga mos ravishda, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, davolash ishlari uchun qilingan barcha sarf-xarajatlarning shaffofligini ta'minlash borasida axborot berish jarayonini Avtomat lashtirishning markazlashgan tizimidir[4].

«Aqlli va raqamli innovatsion tibbiyot» modelini mamlakat aholisining sog'lom turmush tarziini rivojlantirishning innovatsion modeli sifatida ishlab chiqish masa lasini ilmiyamaliy jihatdan quyidagi to'rt bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Birinchi bosqich. Bu bosqichda asl obyekt hisoblanmish mamlakat aholisining tib biy hayotiga oid barcha ma'lumotlardan iborat bo'lgan bilimlar to'planadi. Falsafiy jihatdan qaraganda modelning kognitiv imkoniyatlari shundan iboratki, model asl obyektning har

qanday muhim xususiyatlarini namoyish etadi (takrorlaydi, taqlid qiladi). Asl nusxa va model o'rtasidagi o'xshashlikning zarur va yetarli darajasi masalasi aniq tahlilni talab qiladi. Shubhasiz, model asl nusxada identifikatsiya qilingan taqdirda (keyinchalik u model bo'lishni to'xtatadi) ham, asl jihatidan barcha muhim jihatidan haddan tashqari farq qilganda ham o'z ma'nosini yo'qotadi. Shunday qilib, modellashtirilgan obyektning ba'zi jihatlarini o'rganish boshqa jihatlarni o'rganishdan bosh tortish evaziga amalga oshiriladi. Shuning uchun har qanday model asl nusxani faqat qat'iy cheklangan ma'noda almashtiradi. Bundan kelib chiqadi, bitta obyekt uchun diqqatni o'rganilayotgan obyektning ayrim jihatlariga qaratadigan yoki obyektning har xil detallar bilan tavsiflaydigan bir nechta "ixtisoslashgan" modellar qurish mumkin.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda mazkur model mustaqil tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi. Bunday tadqiqot shakllaridan biri bu "model" tajribalarini o'tkazish bo'lib, unda modelning ishlash shartlari ataylab o'zgartirilib, uning "xatti-harakatlari" to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlashtiriladi. Ushbu bosqichning yakuniy natijasi bu model haqidagi bilimlar to'plami, ya'ni uning tanasi yaratiladi.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda bilim modeldan asl nusxaga - bilimlar to'plamini shakllantirishga o'tkaziladi. Shu bilan birga, modelning "tilidan" asl nusxaning "tiliga" o'tish sodir bo'ladi. Bilimlarni uzatish jarayoni ma'lum qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Model haqidagi bilimlar asl obyektning modelni yaratish jarayonida aks ettirilmagan yoki o'zgartirilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzatilib boriladi.

To'rtinchi bosqich. Bu bosqichda modellar yordamida olingan bilimlarni amaliy tekshirish va ulardan obyektning umumlashtiruvchi nazariyasini yaratish, uni o'zgartirish yoki boshqarish uchun foydalanish sodir bo'ladi.

O'zbekistonning yangilanayotgan sharoitida mamlakat aholisining sog'lom turmush tarziini shakllantirish va rivojlantirishda, hududiy geografik joylashuvini, undagi ahvolini, mavjud ekologik vaziyatni, aholining sonini hisobga olgan holda "Aqlli va raqamli innovatsion tibbiyot" modelini

1) har bir xonadon a'zolarining salomatligi haqida biotibbiy ma'lumotlarning yagona bazasiga ega bo'lishini;

2) har bir kasallik turlari yurak qontomir, buyrak, jigar, ayollar kasalliklari va shunga o'xshash) bo'yicha elektron shakldagi tibbiy kartalar tizimi bo'yicha ishlashni tashkil qilishni;

3) mobil qurilmalar orqali masofaviy tashxislash ishlarini bajarishni;

4) belgilangan muddatlarda aholini virtual ko'rikdan o'tkazish, natijalariga qarab esa virtual shifoxona xizmatini ko'rsatishni;

5) xonadon a'zolari haqidagi tibbiy ma'lumotlarni, davolanish rejalarini, jarayonlari rini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni;

6) davolanish uchun kerakli bo'lgan doridarmonlar to'g'risida aniq ma'lumotlarga bazasiga ega bo'lish va shu asosda elektron retseptlar orqali doridarmonlar berishni

7) zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatini uyg'unlashtirish asosida, davolashning eng optimal kam xarajatli tomonlari haqida mobil ilovlar bazasiga ega bo'lishini;

8) qishloq, tuman, viloyat, mamlakat va butun jahondagi tibbiy vaziyat haqida vir tual shakldagi axborotlarni to'plash va mobil qurilmalar orqali tarqatish imkoniyatiga ega bo'lishini;

9) insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazuvchi buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi tibbiy ma'naviyma'rifiy ishlarni tashkillashtirish borsida saytlar bo'lishi kerak.

10) qishloq aholisining tibbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tibbiyot ilmining turli sohalari haqida ilmiyommabop ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lish va boshqalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qi linishi kerak.

Mamlakat aholisining sog'lom turmush tarziini shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omillaridan yana birini aholining tibbiy savodxonlik darajasi tashkil qi ladi. Ma'lumki, har qanday davlatning kuchqudrati, salohiyati fuqarolarning jismoniy va aqliy barkamolligiga, salomatligiga bevosita bog'liq. Inson salomatligi nafaqat bugungi kun, balki kelajak uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rah bari Sh.M.Mirziyoyev yozganidek:” Bizni doimo qiynaydigan, tinchlik bermaydigan orzuniyatimiz,Yaratgandan so'raydigan eng katta tilak iltijomiz shuki, betakror, go'zal, saxovatli Yangi O'zbekistonimizda, albatta, har tomonlama sog'lom,o'zining kuchqudrati,barkamolligi bilan o'zgalarning havasini uyg'otadigan avlodlar yashashi kerak. Dunyoda sog'liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan,aholini o'rtacha umr ko'rish darajasi yuqori bo'lgan eng ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifamizdir”[5].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida qishloq aholisining sog'lom turmush tarziini shakllantirish va rivojlantirishning il miyamaliy yechimlarini topishga qaratilgan “Aqli va raqamli innovatsion tibbiyo”, “Qishloq xo'jaligi ekin dalasiga ishlov berish va hosilini yig'ib olishning biotibbiy- texnologik xaritasi” kabi innovatsion modellarini joriy qilish natijasida, mamlakat aholisining tibbiy savodxonligini oshirish, yuqumli bo'lmagan, yuqumli, parazitlar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi zaruriy chora tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining sog'lom turmush tarziini oshirish, tibbiy profilaktika bo'yicha kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlash; inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish; qishloq hududlarda yashovchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish infrastrukturasi yaxshilash; dalamadala, uyma uy yurib aholining salomatligidan, tibbiy vaziyat holatidan xabar olish kabi ishlarni o'zaro integratsiya va muvofiqlashtirilib boshqarishning zamonaviy intellektual tizimi joriy etilishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi xodimlariga bayram tabrigi. 08.11.2024.// <https://president.uz/uz/lists/view/7678>.

2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.2-jild. – Toshkent:« O'zbekiston» NMIU,2018. – B.88.
3. O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida” qonuni. 2020 yil 7 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida «Aqlli shahar» texnologiyalarini joriy etishkonsepsiyasi”(2019 yil 18 yanvardagi 48-son qaroriga 1-ILOVA)// <http://www.lex.uz/pdfs/4171067> ga asoslangan holda ta'rif berilgan.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent:”O'zbekiston” nashriyoti,2022. – 216.